

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60711000 – Mexatronika va robototexnika
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711000 – Mexatronika va robototexnika

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: MIRZALIYEV SANJAR MAXAMATJAN O'G'LI

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: NEIL HART

De Montfort university

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260026
Xulosa raqami	495
Xulosa sanasi	04.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Guvohnoma: MAS № 0000002, 05.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Mexatronika va robototexnika
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711000
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000002, 05.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711000 – Mexatronika va robototexnika
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711000 – Mechatronics and Robotics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711000 – Мехатроника и робототехника
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Mexatronika muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturining tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturi ish beruvchilar, soha mutaxassislari hamda yetakchi olimlarning fikr-mulohazalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, uni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv asoslari va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Dasturga mas'ul tarkibiy tuzilmaning vakolatlari va funksiyalari aniq belgilangan, istiqbolli rivojlantirish rejasi hamda sifat monitoringi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun ta'lim dasturining soha mutaxassislari, ish beruvchilar va yetakchi olimlar ishtirokida shakllantirilgani alohida ahamiyat kasb etadi, chunki bu ta'lim mazmunining zamonaviy sanoat talablari, innovatsion texnologiyalar va ilmiy rivojlanish tendensiyalariga mosligini ta'minlaydi. Manfaatdor tomonlar ishtiroki hamda sifat monitoringi jarayonlarini yanada tizimli hujjatlashtirish ta'lim dasturining uzluksiz takomillashtirilishiga xizmat qiladi. Demak, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur institutsional asos yaratadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturi mazmunining asosiligi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari belgilangan bo'lib, dastur tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan ishlab chiqilgan hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun nazariy

bilimlarni amaliy muhandislik, avtomatlashtirish, loyihalash va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar muhandislik masalalarini amaliy hal etish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali shakllanadi. Fanlarning fundamental muhandislik fanlaridan ixtisoslashgan yo'nalishlarga mantiqiy ketma-ketlikda o'tishi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, ta'lim dasturi mazmuni milliy ta'lim standartlari talablariga muvofiq, nazariy tayyorgarlik hamda amaliy muhandislik faoliyati uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturida o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturida akademik halollik qoidalari hamda ularning buzilishining oldini olish bo'yicha tartiblar universitet miqyosida ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayonini tashkil etish, baholash tartiblari va o'quv natijalarini monitoring qilish tizimi ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalari bilan muvofiqlashtirilgan. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, loyihaviy ishlar hamda muhandislik yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan faoliyatning o'quv jarayoniga integratsiya qilingani alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar nazariy bilimlarni amaliy muhandislik faoliyati bilan uyg'unlashtirish orqali shakllanadi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'lim jarayonining xolisligi va ishonchliligini ta'minlaydi. Demak, o'quv jarayoni va baholash tizimi amaldagi standartlar talablariga muvofiq, amaliyot bilan uzviy bog'langan hamda natijaga yo'naltirilgan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturida talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Talabalarni akademik va kasbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ularga maslahat berish bo'yicha zarur mexanizmlar shakllantirilgan. Jumladan, Fizika-matematika fakulteti qoshidagi to'garaklar, universitet tyutorlari hamda Texnologik ta'lim kafedrası professor-o'qituvchilarining mentorlik faoliyati talabalarning kasbiy rivojlanishi va

ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga xizmat qiladi. Qabul jarayonlari va talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, qabul parametrlari universitetning mavjud imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgan. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun akademik maslahat, mentorlik va amaliy yo'naltirilgan qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki murakkab muhandislik fanlarini o'zlashtirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish individual maslahat hamda amaliy yo'naltirilgan ko'makni talab etadi. Demak, talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi amaldagi normativ talablar asosida samarali tashkil etilgan bo'lib, talabalarning akademik, kasbiy va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturida inson resurslari salohiyati tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi yetarli darajada shakllantirilgan bo'lib, ularning kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Universitetda professor-o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu inson resurslari salohiyatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun professor-o'qituvchilarning muhandislik-amaliy tajribasi, ilmiy salohiyati hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalari alohida ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur yo'nalishda kasbiy kompetensiyalar nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda amaliy muhandislik tajribasi orqali shakllanadi. Kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Demak, inson resurslari tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda kasbiy va ilmiy salohiyatni izchil rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha 60711000 – Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim dasturining moddiy-texnik ta'minoti tahlil qilinganda, yo'nalishdagi barcha mezonlar muvofiq deb baholangan. Farg'ona davlat universitetining moddiy-texnik bazasi, axborot-resurs markazi hamda raqamli infratuzilmasi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish, talabalar uchun qulay va xavfsiz o'quv muhitini yaratish hamda inklyuziv

ta'lim talablarini ta'minlashga xizmat qiladi. Mexatronika va robototexnika yo'nalishi uchun zamonaviy laboratoriyalar, robototexnika va avtomatlashtirish jihozlari, o'lchov-uskunalar hamda texnologik vositalarning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki muhandislik kompetensiyalari real texnik qurilmalar va ishlab chiqarish jarayonlari bilan ishlash orqali shakllanadi. Raqamli ta'lim muhiti hamda elektron ta'lim resurslarining mavjudligi o'quv jarayoni va amaliy tayyorgarlikni samarali qo'llab-quvvatlaydi. Demak, moddiy-texnik ta'minot tizimining asosiy elementlari shakllantirilgan bo'lib, ular bakalavriat ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish hamda zamonaviy muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yetarli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish maqsadga muvofiq.
- ✓ Ixtisoslashgan laboratoriyalar va zamonaviy jihozlarni bazasini mustahkamlash tavsiya etiladi.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilab borish.
- ✓ Ixtisoslashgan laboratoriyalar va zamonaviy jihozlarni bazasini mustahkamlash.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Xalqaro hamkorlik va amaliyot bazalarini kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Farg'ona davlat universiteti" davlat muassasasida 60711000 – "Mexatronika va robototexnika" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional

asoslar, malakali kadrlar tarkibi, davlat ta'lim standartlari asosidagi o'quv dasturi hamda moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Barcha yo'nalishlar (bob) muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

